

O‘RTA MAXSUS VA PROFESSIONAL TA’LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN FRANSUZ TILI FANIDAN MALAKA SINIVI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI

Ushbu spetsifikatsiyasi fransuz tili fanidan o‘rta maxsus va professional ta’lim tashkilotlari o‘qituvchilarini attestatsiya malaka sinovida foydalaniladigan test topshiriqlarining mazmuni, qamrovi, turi, kognitiv ko‘nikma darajalari, baholash mezonini va talabgorlarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablarni aks ettiradi.

I. Maqsad

Baholash jarayonida ishonchlilik, adolatlilik va shaffoflikni ta’minlash, talabgorlarning fransuz tili fani bo‘yicha nazariy bilimlari, amaliy ko‘nikma va kompetensiyalarini kompleks baholash.

II. Me‘yoriy asoslar

1. Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi “Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 572-son Qarori.

2. Fan dasturi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 18-avgustdagi 47-q/q-sonli hamda Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining 2025-yil 18-avgustdagi 40-q/q-sonli “Umumta’lim fanlarini kasbiy ta’lim yo‘nalishiga mos tanlov fanlari orqali o‘qitishni tashkil etish to‘g‘risidagi” qo‘shma qaroriga muvofiq joriy etilgan.

III. Baholash qamrovi

Amaliy fonetika

Amaliy grammatika moduli

Og‘zaki nutq amaliyoti

O‘qish va yozish amaliyoti

IV. Baholanadigan mazmun sohalar va konstruktlar

Mazmun soha	Kichik mazmun soha	Konstruktlar	Ulushi (%)	Testlar soni
Amaliy fonetika	Fonetik nazariya va talaffuz tizimlari (nutq tovushlari, artikulyatsiya, akustik xususiyatlar, nutq oqimi, intonatsiya, talaffuz uslublari, fonema va fonetik yozuv, nutq birliklari, assimilyatsiya, urg‘u va ritm)	Nutq tovushlarining akustik, artikulyatsion va lingvistik xususiyatlarini tushunadi va ularni tahlil qila oladi. Unli, undosh va yarim unli tovushlarning artikulyatsiya va akustik xususiyatlarini, shuningdek, burun unlilarining nazalizatsiyalashuvi va ritmik-cho‘ziqlik xususiyatlarini farqlay oladi. Bo‘g‘in, artikulyatsion birlik va aksent-semantik birlik kabi nutq oqimi birliklarini tushunadi, ularning hosil bo‘lishi va birikish hodisalarini izohlay oladi. Intonatsiya, urg‘u va talaffuz uslubining (stil) kommunikativ funksiyalarini nazariy jihatdan baholay oladi. Assimilyatsiya hodisasi va uning turlarini aniqlay oladi, talaffuz va orfoepiya normalari, shuningdek, fonetik yozuv (transkripsiya) tamoyillarini tushunadi. Versifikatsiya va she‘r tuzilishi bo‘yicha fonetik elementlarning rolini tahlil qila oladi.	20 %	8
Amaliy grammatika moduli	Morfologik va sintaktik nazariya (tilning morfologik va sintaktik tuzilishi, so‘z turkumlari, fe‘l va otning kategoriyalari, sifat, olmosh va ravish, bog‘lovchilar, gap va gap bo‘laklari, sintaktik aloqalar)	Tilning morfologik va sintaktik tuzilishini tushunadi, so‘z turkumlari, fe‘l, ot, sifat, olmosh, ravish va ko‘makchilarning grammatik kategoriyalarini aniqlay oladi. Fe‘lning zamon, shaxs, birlik-ko‘plik, tuslanish va shaxssiz shakllarini, shuningdek, ularning sintaktik vazifalarini tahlil qila oladi. Otlarning grammatik kategoriyalari, ko‘plik shakllari, artikul va olmoshlarning gapdagi vazifalarini tushunadi va tahlil qiladi. Sifat va ravishlarning shakli, grammatik kategoriyalari va sintaktik funksiyalarini aniqlay oladi. Gapning asosiy va ikkinchi darajali bo‘laklarini, vositali va vositasiz to‘ldiruvchilarni, so‘z tartibi va bog‘lovchilar yordamida sintaktik aloqalarni tahlil qila oladi. Sodda va qo‘shma gaplar, ergash gaplar va bog‘lovchisiz bog‘langan gaplarning tuzilishi va sintaktik aloqalarini nazariy jihatdan tushunadi. Ko‘chirma va o‘zlashtirma gaplar, shuningdek, sintaktik konstruktsiyalarning sinonimiyalari va qo‘llanilish yo‘llarini tahlil qila oladi.	30 %	12
Og‘zaki nutq amaliyoti	Og‘zaki mulototning nazariy	Kommunikativ nutq vaziyatlari uchun mos bo‘lgan nutq formulalarini (salomlashish, minnatdorchilik, kechirim, murojaat, rasmiy/norasmiy uslub) mazmuniga ko‘ra tanlay	20 %	8

	asoslari va kommunikativ kompetensiya elementlari (pragmatik vaziyatlar, nutq formulalari, madaniy me'yorlar, muloqot strategiyalari, dialog/monologning tarkibiy xususiyatlari, noverbal vositalarning funksiyasi)	oladi. Dialog va monologlarning tarkibiy qismlarini, ularning maqsadi va funksiyalarini nazariy jihatdan farqlay oladi. Pragmatik ma'no, so'zlovchi niyati, ijtimoiy masofa va muloqot kontekstini inobatga olgan holda to'g'ri nutq variantini tanlay oladi. Milliy-madaniy nutq me'yorlari (salomlashish odobi, minnatdorchilik shakllari, rasmiy nutq talablari)ning qo'llanishini to'g'ri baholay oladi. Noverbal vositalarning (intonatsiya, urg'u, imo-ishora, tana tili) kommunikativ funksiyasini nazariy jihatdan aniqlay oladi. Muloqot strategiyalarining ma'nosi va vazifasini (mavzuni boshlash, davom ettirish, yakunlash, aniqlashtirish, fikrni yumshatish) to'g'ri tanlay oladi.		
O'qish va yozish amaliyoti	O'qish va yozma nutq bo'yicha til kompetensiyasining nazariy va amaliy asoslari (matn turlari bilan ishlash, o'qish strategiyalari, yozma janrlar, muallif g'oyasini tahlil qilish, yozma nutqni qurish grammatikasi)	Turli janrdagi matnlarning (informatsion, badiiy, rasmiy, shaxsiy, akademik) maqsadi, tuzilishi va mazmuniy xususiyatlarini farqlay oladi hamda matndan zarur ma'lumotni topa oladi. O'qish strategiyalaridan (skimming, scanning, intensive reading, inference) foydalanib matnning asosiy g'oyasini, muhim detallarini va kontekstdagi so'z ma'nolarini aniqlay oladi. Matndagi fikrlar o'rtasidagi mantiqiy bog'lanishlar, sabab-oqibat munosabatlari, muallif pozitsiyasi va baholovchi fikrlarni tahlil qila oladi. O'qilgan material asosida xulosa chiqarish, qisqa mazmun yozish, fikr bildirish va muallif g'oyasiga nisbatan pozitsiya bildirish ko'nikmalariga ega. Yozma janrlarning kommunikativ vazifasi va tarkibiy elementlarini (shaxsiy/xizmat xati, insho, hisobot, taqriz, e'lon, ariza, rezume, kundalik, retsept va b.) to'g'ri tanlay oladi. Yozma matn yaratish jarayonida mazmun izchilligi, mantiqiy bog'liqlik, uslub birligi va matnning kommunikativ maqsadiga mos til vositalarini qo'llay oladi. Yozma nutqning grammatik asoslari (gap tuzilishi, bog'lovchilar, kirish so'zlar, rasmiy-norasmiy uslubga mos leksika, punktuatsiya)ni qo'llab, grammatik jihatdan toza va aniq matn tuza oladi.	30 %	12
Jami			100 %	40

V. Baholanadigan kognitiv ko'nikmalar va taqsimoti

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Ulushi (%)
1.	Bilish	Fanga doir nazariy ma'lumotni, atama va qoidalarini eslab qolish, tushunish, nazariy jihatdan yondasha olish	25%
2.	Qo'llash	O'zlashtirgan nazariy bilim va tushunchalarni yangi kontekstlarda qo'llay olish	50%
3.	Mulohaza qilish	Muayyan matndagi fakt, dalil va me'yoriy holatlarni taqqoslash, tahlil qilish, matn mazmuniga muvofiq taxmin qilish, matn xronologiyasini aniqlash, xulosa(lar) chiqara olish	25%

VI. Test turlari va taqsimoti

T/r	Test turi	Izohi
1.	Y1	To'rtta variantdan bittasi to'g'ri bo'lgan muqobil javobli yopiq test
2.	Y2	Tartiblangan bir nechta javoblardan to'g'rilarni topishni talab qiladigan muqobil javobli yopiq test
3.	Y3	Moslashtirishni talab qiladigan yopiq test
4.	Y4	Gap yoki jarayonlarni to'g'ri ketma-ketlikda joylashtirish talab etiladigan yopiq test

VII. Baholash mezoni va ajratilgan vaqt

Test topshiriqlari umumiy 80 ball bilan baholanadi.

Har bir to'g'ri javob 2 ball, noto'g'ri javob esa 0 ball bilan baholanadi.

Test variantini yechish uchun 80 daqiqa vaqt me'yori belgilanadi.

VIII. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

IX. Inklyuziya va moslashtirish

Alohida ta'limga ehtiyoji bor talabgorlar uchun qo'shimcha (umumiy vaqtning 15 %i miqdorida) vaqt qo'shib beriladi. Shuningdek, topshiriqlarning berilish shakli va turi ham ularga mos va qulay shaklda taqdim etiladi. Ko'rish sohasida imkoniyati cheklangan talabgorlar savollarni o'qib berishi uchun maxsus texnik yordamchi bilan kelishiga ruxsat etiladi, faqat savolning to'g'ri javobini aytishi mumkin emas.

X. Foydalanishga tavsiya etiladigan asosiy adabiyotlar

Asosiy adabiyotlar

1. Annie Berthet, Catherine Hugot. Alter Ego B1. Paris, 2007.
2. Anne A., Bernadette B., Joëlle B., Marie F. Exercice de grammaire. B2 Paris, 2019.
3. Claire Miquel Vite et Bien A1-A2, 2e édition. France 2019.
4. Claire Miquel. Grammaire en dialogues. Michele Bouclarès. Paris, 2015.
5. Dauda P., Giachino L., Gehin S., Génération B1, Méthode de français, Les éditions Didier, Paris 2016.
6. Elodie Heu, Editio Méthode de français B1, Les éditions Didier, Paris 2018.
7. Jean Louis Frérot. Grammaire progressive du Français (avec 400 exercices). Paris, 2012.
8. Michèle Bartery. Patricia Beaujouin. Expression orale. Niveau 2/3. France, 2018.
9. Nishonov M.N., Yoqubov J.A., Karimova N.X. Grammaire pratique de la langue française (Morphologie I,II) O'quv qo'llanma. Toshkent -2019.
10. Nishonov M.N., Yoqubov J.A., Karimova N.X. Grammaire pratique de la langue française (Syntaxe) O'quv qo'llanma. Toshkent -2020.
11. Sylvie Poisson-Quinton. Expression écrite. Niveaux 2/3. France, 2019.
12. Sylvie Poisson-Quinton, Reine Mimran. Compréhension écrite. Niveau 2/3. France, 2019.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Anne A., Bernadette B., Joëlle B., Marie F. Exercice de grammaire. A1 Paris, 2019.
2. Anne A., Bernadette B., Joëlle B., Marie F. Exercice de grammaire. A2 Paris, 2019.
3. Anne A., Bernadette B., Joëlle B., Marie F. Exercice de grammaire. B1 Paris, 2019.
4. Anne A., Bernadette B., Joëlle B., Marie F. Exercice de grammaire. B2 Paris, 2019.
5. Elodie Heu, Myriam Abou-Samra, Céline Braud, Michèle Brunelle, Marion Perrard, Cécile Pinson. Editio. Niveau 2. France 2016.
6. Hirschsprung N., Tony Tricot, Cosmopolite 3 B1, Méthode de français, Hachette livre, Vanves Cedex, France, 2018.
7. Nathalie Hirschsprung, Tony Tricot. Cosmopolite 1. France 2017.
8. Nathalie Hirschsprung, Tony Tricot. Cosmopolite 2. France 2017.
9. Sylvie Poisson-Quinton. Expression écrite, Niveau 1. France, 2017.
10. Sylvie Poisson-Quinton, Rein Mimran. Expression écrite, Niveau 2. France, 2013.

Axborot manbalari:

1. <http://gov.uz/>
2. <http://www.ziyonet.uz/>
3. <http://www.edu.uz/>
4. <http://www.lepointdufle.net/>
5. <http://www.apprendre.tv5monde.com/>

6. <http://www.enseigner.tv5monde.com/>
7. <http://www.webpedagogique.com/ressources-fle/>
8. <http://www.franceinfo.com/>
9. <http://www.leflepourlescurieux.fr/>